

JADIDCHILARNING MA'RIFATPARVARLIKKA QO'SHGAN HISSASI

Axunova Shoira Hamroqulovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

2-maktab Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo xalqlarining mustaqil bo'lishi uchun o'zining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy harakatlarini olib borgan ma'rifatparvarlarning aniq strategik harakatlari haqida yoritilgan, jadidchilik namoyondalarining asarlarida ilgari surilgan g'oyalar ko'rsatilgan va ularning bugungi kundagi ahamiyati izohlangan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, panturkizm, taraqqiyparvarlar, milliy valyuta, milliy armiya, millat taqdiri, mustaqillik, hurfikrlilik, yagona g'oya.

XIX asr oxiri XX asrning dastlabki yillarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy tashabbusdir.⁷ Jadidchilik tashabbusi XIX asrning 80-yillarida Qrim davlatida dunyoga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoning boshqa davlatlarida tarqaldi.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun urinish, turkiy tillarni gullab-yashnatish, shu tillardagi adabiyotni rivojlantirish, dunyoviy ilmlarni anglab yetish, fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda xotin-qizlar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan.

Oldingi davrda yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb fikr yuritilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

Jadidchilik avvaliga XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim-tatarlar o'rtasida paydo bo'ldi.

Jadidlar omma o'rtasida o'zlarini taraqqiyparvarlik namoyondalari, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Shu davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi o'rinda, ziyolilar mahalliy xalqning umumjahon taraqqiyotidan so'nggi o'rinlarda qolayotganligini his etib, aholi qatlamini isloh qilish ahamiyatligini tushunib yetgandilar. Jadidchilik o'z oldiga hukmdorlarning siyosiy ongini o'zgartirishga undovchi siyosiy harakat edi. Uning ildiz otish hamda o'z o'rnini yo'qotish davrlari bo'lib, bularni aniq belgilangan to'rt maxsus yillarga ajratish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva atroflarida bu harakatlar 1895-1905-yillarda sodir bo'ldi, yakunida mag'lubiyatga yuz tutdi, qolgan davrlarda ham jadidlar el-yurt uchun munosib tashabbuskorona harakatlar olib bordilar, ammo har tomonlama rivojlangan Sovet davlati bu harakatlarga munosib kurash olib bordi. 1906-1916-yillarda bundan

⁷ Sirojiddin Ahmedov .2000-2005.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

tashqari, 1917-1920-yillarda ham ular o'z harakatlari bilan chiqishlar qilishdi, 1921—1929-yillarda oxirgi harakatlar o'z nihoyasini topdi.

Dastlabki davrda Turkistonda hukmron Rossiyasining barqaror o'rnashib olishi yuzaga keladi. Ular o'zlarining siyosiy vakillari ko'magida mahalliy xon va amir hukmronlik belgilarini cheklabgina qolmasdan, xonlarni yasama qo'g'irchoqlarga aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining faoliyat ko'rsatishi va harakatlarini xohlagancha amalga oshirishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratadilar, har xil kompaniyalar, aksiyadorlik birlashmalari shaklini yaratadilar. Ayni paytda, mahalliy millatning talab va ehtiyojlari e'tiborga olinmasdan bo'shlikka yo'l qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmasdan,, ularni mensimaslik avjiga chiqdi. Hayotiy, ilmiy saviyasi baland bo'lgan qozilar va ulamolar tajribasiz kishilar o'rniga almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik va kamsitishlar nihoyatda ko'payib ketdi. Madrasa va maktablarning bilim berishini cheklab, mahalliy yerlar nomlarini ruscha nomlar bilan almashtirish, hatto ba'zida mahkamada ishlayotgan qozilarning bo'yinlariga xoch taqtirishgacha ularni majburlashgacha borildi.⁸ Shu davr ahvoli Muhammadali xalfa Sobir o'g'li xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“sida aniq-ravshan yoritib berilgan.

Xalqning ertasini doim o'ylovchi xalqparvar kuchlar xalqning deyarli hamma tabaqalari — hunarmandlar, dehqonlar, savdogar shaxslar, mulkdor, ulamolardan saralangandi. Ziyolilar birinchi o'rinda chorizm istibdodiga qarshi kurashishni , millatning asriy qoloqligidan uyg'otishni — siyosiy-ma'rifiy jihatdan olib borishga kirishdilar. Jadidchilik yo'l boshchiliklari mana shu tarzda ,tarixiy bir davrda Turkiston hududida rivojlanish uchun o'ziga qulay hudud yaratdi.

Jadidlar ichidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy tengsiz mutaxassis namoyondalari , madaniyat arboblari kamol topib yetishib chiqqan, ular hamisha yurtni obod va o'z vatanlarini har tomonlama yuksalganligini ko'rishni istaydilar, tasavvur qiladilar hamda shu yo'lda umrlarining oxirigacha kurashdilar. Ularning Turkiston mustaqilligi uchun olib borgan sa'y-harakatlarida ko'pincha bunday yo'nalishlar ustuvorlikda turardi: yangi usul maktablarining tarmog'ini kengaytirib rivojlantirish; qobiliyatli yoshlarni chet davlatlarga o'qishga jo'natish; turli shakldagi ma'rifiy jamiyatlar hamda teatr truppalari tashkil etish, gazeta va jurnallarning o'ziga xos shaklini chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy fikrlashini isloh qilish yordami bilan Turkistonda milliy demokratik rivojlangan davlat yaratish edi. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil topa yotgan paytda va undan keyin ham bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.⁹ Ammo xalqning boshida turuvchi xonlar jadidlarni qo'llab-quvvatlamadilar.

Jadidchilik namoyondalarining g'oya va maqsadlari aslida bunday edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik hamda diniy xurofotdan olib chiqish, diniy

⁸ Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926

⁹ O'zbekiston tarixi: yangi nighoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998

masalarni isloh qilish, aholi ongida ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish maqsadida kurashish, Buxoro hamda Xivada konstitutsiyaviy monarxiyaviy hamda parlamentar, vaqt o’tgach demokratik respublikani boshqaruvini o’rnatish yordamida ozod va farovon jamiyat qurish, o’ziga xos muntazam faoliyat yurituvchi pul birligini yaratish va milliy armiya tuzish edi.

Turkistonda jadidchilik harakatini olib boruvchilar tepasida Mahmudxo’ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy Ajziy, samarqandlik namoyondasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev asli ismi Ubaydulla Xo’jayev, Toshpo’latbek Norbo’tabekov (toshkentlik namoyondasi), Fitrat, Fayzulla Xo’jayev, Usmonxo’ja Po’latxo’jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abduqodir Muhiddinov (Buxorolik bo’lgan namoyondasi) Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho’lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So’fizodalar turardilar.

Samarqandda Mahmudxo’ja Behbudiy, yoshlarga diniy va dunyoviy bilim berish bilan bir qatorda, millat avlodlarini zamon talablariga mos bilim olish uchun rivojlangan mamlakatlardagi o’quv bilim yurtlariga yuborishimiz lozim degan masalalarni o’rtaga tashlaydi. U quyidagi uchta qoidani ilgari suradi: birinchidan, zamon talablaridan kelib chiqqan holda ish yuritish kerak, ikkinchidan millat ertasi hamda istiqbolini belgilab beruvchi milliy kadrlarni yetishtirib chiqarish, bundan tashqari esa milliy boqiylikdan kelib chiqib, dunyo miqyosida fikr yurita oladigan, chet elliklar fuqarolari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari miqyosida ish yuritadigan ilgari qadamlarda yuradigan davlatga aylantirish edi. Shu davrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrimiz uchun ham mosligi ahamiyatlidir. Behbudiyning bu kabi ilg’or fikrlari mustaqil Respublikamizning hozirgi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning zamonaviy kadrlarni „ayni paytda xorijiy tilarni mukammal biladigan kadrlarni yetishtirish haqidagi qarorlari bilan uyg’undir. Bunga Behbudiy orzu-umidlarining amalga oshishi bilan teng deb qarashimiz mumkin. Behbudiy ma’rifatning ozodlikka olib borishdagi rolini yaxshi tushundi. U shunday yozadi: “Maorif bo’limida ishlayturg’on musulmonlarning boshini silangiz... o’rtadan niqobni ko’taringiz, Turkiston bolalarini ilmsiz qo’ymangizlar. Hammaga ozodlik yo’lini ko’rsatingizlar” Mahmudxo’ja Behbudiy eng ko’zga ko’ringan jadidlardan edi va u ”jadidlar otasi“ deb , haligacha ulug’lanib kelinmoqda.¹⁰

Jadidchilik harakatining ko’zga ko’ringan vakillaridan yana biri Munavvarqori Abdurashid o’g’lidir. U ham qolgan jadidchilar singari yurtining ravnaqi va Vatan taraqqiyotining asosiy bo’g’ini sifatida o’z xalqini savodli va ma’rifatli qilishni anglagan. Uning ana shu fikrdan kelib chiqib, Toshkent diyorida 1901 -yilda yangi uslubdagi maktabni ochadi, unga rahbar sifatida yondashib, musulmon bolalarni o’qitadi. O’sha zamon uchun maqbul va zarur bo’lgan “Adibi avval”, “Adibi Soniy”,

¹⁰ Behbudiy M. Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999

“Yer yuzi” kabi asarlar hamda dasturlar yozadi. U ko‘proq nochorlarni, beva-bechoralarning farzandlarini o‘qitishga ahamiyat qaratadi. Munavvarqori ta‘lim-tarbiya masalalarini isloh qilmay, xalqning bilimni oshirmay, madaniy saviyasini ko‘tarmay jamiyatda ulkan islohotlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib yetgan edi.

Millat ruhini uyg‘onishga chorlovchi g‘oyalarni olg‘a olib borgan jadid harakatining yana boshqa yirik vakili Abdulla Avloniydir. U millatning ma‘naviy tanazzulga yetib borishini anglagan tarzda davr kamchiliklarini tanqid qildi, barchani xat-savodli bo‘lish, zamonaviy fan, har xil yutuqlarni egallashga chaqirdi. Abdulla Avloniyning “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir” degan tamoyili ma‘rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi.¹¹ U ma‘rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma‘rifat ziyosidan xabardor etishda unitilmaydigan xizmatlarni amalga oshirdi. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ma‘rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan. Allomaning qarashlarini o‘rganish – hozirgi kunda o‘zligimizga kelish va anglash jarayoni o‘tayotgan bir davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday o‘rinlarda uning asarida ushbu g‘oyani ilgari suradi. “Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas‘ul bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Bizlarni ilm jaholat qorong‘uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma‘rifat dunyosiga chiqarur. Alloh taologa muhabbat va e‘tiqodimizni orttirur.”

Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906—1916-yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o‘zligini anglashga, birlikka da‘vat etdi. O‘lka moddiy va ma‘naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi.¹²

Cho‘lpon she‘r hamda yozgan maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Davrning iste‘dodli advokati Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev oliy o‘quv yurtini tashkil etish, solliqlarni tartibini joriy etish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berish masalasini oldinga olib chiqdi. Jadidchilik namoyondalari o‘z vakillarining fikrlarini e‘lon qilar ekan, xalqni har vaqt g‘aflat uyqusidan uyg‘otuvchi millat ongining ochqichi¹³ligini anglatish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga chorlay oldi. Bu ularning, shubhasiz, tarixda millat ma‘naviy-ma‘rifiy dunyosining kamol topishiga qo‘shgan beqiyos hissa bo‘lib qoldi.

Ular ilgari surgan ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalar to‘plami bugungi kunga kelib, nechog‘liq muhim va zarur ekanligi aniq bo‘ldi. Zero, xalq g‘amini yegan uning

¹¹ Avloniy A., Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 1998

¹² Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;

¹³ Fitrat, Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 2000

ertangi kuni bilan yashagan har bir inson taraqqiyparvardir. Bu harakatni doimo esda saqlamoq burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddin Ahmedov .2000-2005. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
3. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999;
5. Avloniy A., Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 1998.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;
7. Fitrat, Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 2000;